

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**5140500 – Kimyo yo'nalishida ixtisoslik fanlardan Yakuniy davlat attestatsiyasi
sinovlari bo'yicha fanlar**

DASTURI

Buxoro – 2024 yil

Ushbu yakuniy davlat attestatsiyasi dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2009 yil 22 maydagi 160-sod buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 5 iyunda 1963-sod bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi oly ta'lif muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida Nizom" ga asosan, "Umumiy va noorganik kimyo", "Organik va fizkolloid kimyo" kafedralarida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Avezov H.T.  BuxDU Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Umarov B.B.  BuxDU Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori, professor

Abduraxmonov S.F.  BuxDU Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi mudiri, kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Nazarov S.I.  BuxDU Umumiy va noorganik kimyo kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Amonov M.R.  BuxDU Umumiy va noorganik kimyo kafedrasi professori, texnika fanlari doktori, professor

Sharipov M.S.  BuxDU Umumiy va noorganik kimyo kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

Taqrlizchilar:

Nurutdinova F.M. Buxoro davlat tibbiyot instituti "Tibbiy kimyo" kafedrasi mudiri, texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Axmedov V.N. Buxoro muhadislik texnologiyasi instituti "Kimyo" kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, professor

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi Tabiiy fanlar fakulteti uslubiy kengashining 20 24 yil 11-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqqa tavsija etilgan.

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi Buxoro davlat universiteti Uslubiy Kengashining 20 24 yil 30 03 -sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

KIRISH

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi 5140500 – Kimyo yo'naliishi bitiruvchilarining "Noorganik kimyo", "Analitik kimyo", "Fizikaviy kimyo", "Organik kimyo" fanlari bo'yicha egallagan bilim va malakalarini baholash uchun tuzilgan.

Ushbu dastur "Noorganik kimyo", "Analitik kimyo", "Fizikaviy kimyo", "Organik kimyo" fanlarining dasturlarida belgilangan talabalarga kimyoviy elementlar xossalarni davriy qonun va davriy sistemasi asosida modda tuzilishining hozirgi zamon ma'lumolariga suyangan holda, nazariy kimyo tushunchalarini qo'llab tushuntirish, kimyo fanidan professional tayyorgarlikka asos solish, kimyodagi fanning sifat tafsifidan miqdoriy tassavvurlarga o'tishni amalga oshirish, modda tuzilishi to'g'risidagi hozirgi zamon tushunchalari, moddalarning tuzilishi va tarkibini ularni tashkil qilgan elementlarning davriy sistemada joylashgan o'rniga bog'liqligini talabalarga o'rgatish, modda va kimyoviy jarayonlar to'g'risidagi ta'lilot nazariyasini o'zlashtirish va amaliyotda qo'llay bilishni o'rgatish, noorganik kimyoning nazariy asoslarini hozirgi zamon rivojlanish yo'llari, ularning fandagi va texnikadagi ahamiyati haqida chuquq bilim berish va shu sohada talabalarda mantiqiy xulosalar chiqarishni o'rgatish, kimyoning nazariy qonunlardan turli masalalarni xal qilishda uddaburonlik bilan foydalanish qobiliyatini rivojlanishini, kimyoviy reaksiyalar mahsuldarligini aniq hisoblash, turli hisoblash ishlardan ma'lumotomalaridan unumli foydalana olish, termodinamik kattaliklarning taqribiy qiyatlarni topish, turli bolalar diarammalaridan to'g'ri foydalanish, kimyoviy jarayonlarning kinetik tashqillardan aniqlash, kimyoviy jarayonlarning berilgan mexanizmlari uchun kinetik tenglamalarini hisoblab topish, talabalarni analizning umumiylari va nazariy asoslari, kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy metodlarning asosiy prinsiplari bilan tanishtirish, murakkab moddalar aralashmasi analizini zamonaviy fan yutuqlari asosida talabalarga tushuntirish, kimyoviy muvozanat turlari haqida yetarli darajada bilim berish, analistik va metrologik tafsiflar haqida talabalarda yetarlicha ko'nikma hosil qilish, Arrhenius elektrolitik dissotsiatsiya, Lyuis, Brensted-Louri kislota-asosli nazariyalari va Ostvaldning suyultirish, bufer eritmalari, tuzlar gidrolizi qonuniyatlarini mukammal o'rganish, elektrolit va noelektrolit eritmalari va ularning xossalari haqida yetarli darajada bilimlarga ega bo'lish, aralashmalar tarkibini birin-ketin va sistematik analiz qilish sxemalarini tuzishni talabalarga o'rgatish, alohida olingan elementlar, kompleks birikmalarning tuzilishi xossalarni o'rganish va mantiqiy xulosalar chiqarish, organik birikmalarning kimyoviy tuzilish nazariysi va sinflanishi, har bir sind organik moddalariga mansub bo'lgan muhim vakillarning fizikaviy, kimyoviy xossalari va xalq xo'jaligidagi ahamiyati, organik moddalarning xossalari bilan ularning tuzilishi o'trasidagi o'zaro bog'liqlik, yerda organik moddalarning besil bo'lishi va ularning o'simlik va hayvonlar dunyosining paydo bo'lishi hamda rivojlanishidagi roli, hozirgi zamon organik kimyosining yutuqlari, O'zbekiston va jahonda organik kimyo fani va organik sintez sanoatining yutuqlari, organik moddalarning o'rganishda kimyoviy bog'lanishning hozirgi zamon nazariyalari asosida olingan natijalardan foydalana olish, organik moddalarning xossalari va reaksiyaga kirishish qobiliyati to'g'risidagi xulosalarni tushunish, organik moddalarni tozalash, uning sifat (elementar) tarkibini va molekulalar massasini aniqlashni, miqdoriy analiz qilishni, brutto formula chiqarishni, unda u yoki bu funksional guruuhlarning borligini, moddalarning to'yingan, to'yinmagan yoki aromatik birikmalarga mansubligini aniqlay olish, kristallash, vakuumda haydash, suv bug'i bilan haydash va ekstraksiya qilish usullarini bilish, yupqa qavallli va kolonkali xromatografiyadan foydalana olish, organik moddalarning xossalari bilan ularning tuzilishi o'rtusidagi bog'liqni, tuzilishiga asoslanib reaksiyalarining kechish va mexanizmlarini

xarakterlay bilish, organik kimyoning yutuqlarini (tabiiy xomashyo asosida yangi materiallar yaratish, oziq-ovqat mahsulotlar o'mida sintetik ashyodan foydalinish, oziq-ovqat mahsulotlari, dorivor moddalar, vitaminlarni sintezi) vatanimiz fani yutuqlarini aniq misollarda ko'rsata bilish kabi vazifalarni qamrab olgan bo'lib, bakalavriat talabalarining to'rt yil davomida yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda olgan bilimlarini attestatsiyadan o'tkazish maqsadida tuzilgan.

**2. "Noorganik kimyo", "Analitik kimyo", "Fizikaviy kimyo",
"Organik kimyo" fanlari bo'yicha o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi
yozma ishlarini
BAHOLASH MEZONI**

"Noorganik kimyo", "Analitik kimyo", "Fizikaviy kimyo", "Organik kimyo" ixtisoslik fanlaridan bakalavriat yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma usulda o'tkaziladi.

Har bir variant 4 savoldan iborat. Variantdag'i 4 ta savolning har biridan olish mumkin bo'lgan maksimal ball 25 ga teng bo'lib, jami 100 ball to'plash mumkin.

Har bir savolga javob to'g'ri va to'liq yoritilsa, fundamental kimyoning nazariyasi va tarixi, kimyoga doir zamonaviy nazariyalarni bilishi, mustaqil, aniq fikrlar asosida muammolarga ijodiy yondashgan holda yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan bo'lsa, o'zlashtirish kursatkichi 21,5-25 ball oraligida baholanadi.

Savolga to'g'ri javob yozilsa, ilmiy-amaliy jihatdan asosli mantiqli yoritilgan bo'lsa, biroq bugungi ta'lif va tarbiya jarayoni yangilanishlar amaliyoti bilan bog'lashda ayrim noaniqliklarga yo'l quyilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 21-18 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga asosan to'g'ri javob yozilsa, biroq quyilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushohada bayonida tarqoqlik kuzatilsa, uzlashtirish kursatkichi 17,5-14 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga javoblar noto'g'ri yozilsa, o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirilgan bo'lsa yoki savollarga, umuman, javob yozilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-13,5 ball oralig'ida baholanadi.

T.r.	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi	Xususiy ball
1	21,5-25	A'lo (86-100)	Qo'yilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, siyosiy islohotlar va jarayonlarning mazmun-moxiyati to'liq ochib berilgan. O'zbekistonda ta'lif va tarbiya sohasidagi islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tatbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi. Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiyligida xulosalar qilingan. Imlo va stilistik xatolarga yo'l quyilmagan.	8-8,5 7-7,5 5-6,5 1,5-2,5
2	18-21	Yaxshi (71-85)	Javob to'g'ri yozilgan, unda ilmiy bilimlar asosli yoritilgan, ammo formula va reaksiyalarda chalkashliklarga yo'l quyilgan. Javobda talabaning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati sezildi. Ijodiy yondashuv mavjud. Talaba muammoni tahlil qilish qobiliyati ega.	6-7 5,5-6 3,5-4 3-4
3	14-17,5	Qoniqarli (55-70)	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan. Fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatiladi. Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan. Tasavvurga ega, lekin tahlil yetarli emas.	5-6 4,4-5 3-4 2-3
4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-54)	Savol buyicha aniq tasavvurga ega emas. Umuman javob yozilmagan. Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan. O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan.	0-13,5

3. ASOSIY NAZARIY QISM “NOORGANIK KIMYO” fani

1-mavzu. D.I. Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy jadvali va elementlarning kosmik tarqalishi.

Kimyoviy elementlar davriy qonuni Kimyoviy element tushunchasi. Kimyoviy elementlarning atomining elektron qobig'i. Kvant mexanikasining boshlang'ich tushunchalari. Elektron bulut. Atom orbitallar. Atomlarning elektron tuzilishi. Kimyoviy elementlar davriy jadvalining tuzilishi. D.I. Mendeleevning davriy sistemasi va davriy qonun.

Kimyoviy elementlar xossalaring davriyligi. Atomlarning ionlanish energiyalari. Atomning elektronga moyilligi. Elektromanfiylik. Atom va ion radiuslar. Elementlarning davriy va davriy bo'lmagan xossalari. Vertikal, horizontal va diagonal uxshashliklar. Ikkilamchi davriylik. Kaynosimmetriya konsepsiysi. Kaynosimmetrik elementlar.

2-mavzu. Atom tuzilishi

Atomning zamonaviy kvant-mexanik modeli: atomda elektronning holati, kvant sonlar, atom orbitallar. Atom orbitallarini to'lish qonuniyatları (Pauli prinsipi, Gund qoidasi). Atom orbitalarni elektronlar bilan to'lish tartibi. Klechkovskiy qoidalari). Atomlarning asosiy va qo'zg'algan holatlari. Bor postulatları, uning yadroviy modeli. Elementlarning rentgen spektrlari va Mozli qonuni. SHredinger tenglamasi.

Kimyoviy elementlarning radioaktiv o'zgarishi. Tabiiy radioaktiv elementlar. Radioaktivlik hodisasining ochilishi. Radioaktivlik turlari. YArim emirilish davri. Radioaktiv parchalanish konstantasi. Radioaktiv o'zgarishlarning asosiy qonunları. Siljish qoidasi. Sun'iy radioaktivlik. Sun'iy radioaktiv izotoplarning olinishi. Og'ir atom yadolarining bo'linishi. YAdro reaksiyalarining turlari. YAdro energetikasi. Radioaktiv izotoplardan foydalanish.

3-mavzu. Kimyoviy bog'lanish

Kimyoviy bog'lanish to'g'risidagi asosiy tushunchalar. Molekulaning ba'zi parametrlari. Kimyoviy bog'lanish tabiat. Molekula uchun to'liq energiya egrisi.

Kovalent bog'lanishning to'yinuvchanligi va yo'naluvchanligi. Bog'ning karraliligi (tartibi). Bog'ning qutbliligi va qutblanuvchanlik. Kovalent molekulalarning turlari.

Ion bog'lanish. Bog'lanishning novalent turlari. Metall bog'lanish. Molekulalararo bog'lanish. Vodorod bog'lanish.

Valent bog'lar nazariyasi. Molekulyar orbitallar nazariyasi. Molekulyar orbitallar. Turli tuzilishdagi molekulalar orbitallari diagrammalarini solishtirish.

4-mavzu. Agregat holat

Qattiq holat. Kristallar. Kristallardagi kimyoviy bog'lanish turlari. Noorganik birikmalarning asosiy struktur turlari. Qattiq eritmalar. Amorf holat. Suyuq holat. Suyuqlik molekulalarining ionlanishi. Suyuq eritmalar. D.I.Mendeleevning eritmalar uchun kimyoviy nazariyasi. Eruchanlik. Moddalarning eritmadiagi ionlanishi va dissotsilanishi. Erishning energetik effekti. Gaz holat. Gaz eritmalar. Plazma holati. Moddaning boshqa holatlari.

5-mavzu. Eritmalar

Eritmalar haqida umumiy tushuncha. Eritmalarning kolligativ xossalari: diffuziya, osmos va osmotik bosim, eritma ustidagi bug' bosimi va uning tarkibi. Vant-Goff qonuni. Raul qonunları. Eritmalarni muzlash va qaynash haroratlari, krioskopiya va ebulioskopiya. Eruchanlik. Genri qonuni. Moddalarning erish issiqligi. Erigan modda va erituvchining o'zaro ta'siri. Solvatalish. Suvsiz erituvchilar.

6- mavzu. Elektrolit eritmalar

Elektrolitik dissotsiatsiya. Kuchsiz elektrolitlarning dissotsiyalanishi. Ostvaldning suyultirish qonuni. Suvni dissotsiyalanishi. rN-vodorod ko'rsatkich. Indikatorlar. Bufer eritmalar. Bufer eritmalarida rN ni hisoblash. Tuzlar gidrolizi. Gidroliz darajasi va konstantasi. Gidroliz jarayonlarida muvozanatning siljishi. Eruchanlik ko'paytmasi. Tuz effekti.

Kuchli elektrolitlarda dissotsiyalanish. Aktivlik koefitsienti. Ion kuchi. Kislotva asoslar nazariyasi. Arrhenius, Brensted-Louri, Lyuis kislota va asoslari.

7-mavzu. Kimyoviy jarayonlar nazariyasi

Kimyoviy o'zgarishlar energetikasi. Reaksiyaning issiqlik effekti. Termokimyoviy hisoblashlar. Kimyoviy reaksiyaning yo'nalishi. Entropiya. Gibbs energiyasi.

Kimyoviy kinetika. Kimyoviy reaksiya tezligi. Gibbsning aktivlanish energiyasi. Kimyoviy reaksiya mexanizmi. Kimyoviy o'zgarishlarni tezlashtirishni fizik usullari. Kataliz.

Kimyoviy muvozanat. Kimyoviy muvozanat konstantasi. Le SHatele prinsipi. Ionlanish konstantasi. Kompleks hosil bo'lish konstantasi. Suvning avtoprotoliz konstantasi. Geterogen sistemalardagi muvozanat.

8-mavzu. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari

Elementlar oksidlanish darajasining o'zgarishi bilan sodir bo'ladigan reaksiyalari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining yo'nalishi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiya tenglamalarini tuzish. Elektron balans va ion-molekulyar yarim reaksiyalar usullari. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga muhitning ta'siri. Nernest tenglamasi. Oksidlanish-qaytarilish potensiali. Latimer va Frost diagrammasi.

9-mavzu. Elektrokimyo. Elektroliz.

Galvanik element haqida tushuncha. Standart elektrod. Vodorod va metallarni standart elektrod potensiali. Standart elektrod potensiallari qatori. Elektr yurituvchi kuch. EYUKni hisoblash. Katod va anodda boradigan jarayonlar. Elektroliz qonunlari. Elektroliz jarayonlari. Suyuqlanma va eritma elektrolizi. Kimyoviy tok manbalari. Akkumulyatorlar. Quruq batareykalar.

10-mavzu. Elementlar kimyosiga kirish

Kimyoviy elementlarning tarqalganligi. Geokimyo va kosmokimyo. Er qobig'idagi kimyoviy elementlar. Oddiy moddalar. Oddiy moddalarning tuzilishi va xossalari. Oddiy moddalarning olinishi.

Ikki elementli (binar) birikmalar. Kimyoviy bog'lanish turiga ko'ra binar birikmalarning xarakteristikasi. Binar birikmalar barqarorligini solishtirish. Binar birikmalarning kislota-asosli xossalari. Metall birikmalar.

Uch elementli birikmalar. Aralash birikmalar, qattiq eritmalar, evtektika.

Nostexiometrik birikmalar. O'zgaruvchan tarkibdagi birikmalar. Klaster birikmalar.

s- va p-elementlar kimyosi. s- va p-elementlar kimyosining asosiy qonuniyatları. Ichki va ikkilamchi davriylik. s- va p-elementlarning oksidlanish darajalari va koordinatsion sonlari.

11-mavzu. Etinchi guruhning r-elementlari

r-Elementlarning davriy sistemadagi o'rni. Atomlarining tuzilishi. Davrda va guruhlarda atomlar radiusi, ionlanish potensiallari, elektronga moyilligi va elektromanfiylikning o'zgarishi. Guruh va davrlarda elementlarning metallik va metallmaslik xossalari o'zgarishi.

Galogenlarning umumiyl tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Elementlarining atom radiusi, ionlanish potensiali, elektronga moyilligi va elektromanfiylikning guruh bo'ylab o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. Oddiy moddalarning fizik va kimyoviy xossalari. Galogenvodorodlar. Fizik va kimyoviy xossalari. Reaksiyon qobiliyati. Kislotalilik va qaytaruvchilik xossalari. Galogenvodorodlar olishning umumiyl usullari. Ftor, xlor, brom, yod oksidlari. Galogenlarning kislородли kislotalari. Oksidlovchilik va kislotalik xossalari. Umumiyl olinish usullari. Galogenlar kislородли kislotalarining tuzlari. Oksidlovchilik xossalari. Tuzlar va kislotalarning nisbiy turg'unligi. Gipoxloritlar, xloratlar, perxloratlarning ishlatalishi. Galogenlararo birikmalar.

12-mavzu. Oltinchi guruhning r-elementlari

Elementlarning umumiyl tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruh bo'yicha atom radiuslari, ionlanish potensiallari, elementlarning elektronga moyilligi, valentligi va oksidlanish darajalari. Oddiy moddalarning kimyoviy xossalari. Oksidlanish-qaytarilish xossalari. N₂E turidagi gidridlar. Ularning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oltinchi guruh r-elementlarining kislородли birikmalar. Tuzilishining o'ziga xosligi. Oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. Olinish usullari. Sulfit, selenit va tellurit kislotalar. Sulfit-tellurit kislotalar qatorida oksidlovchilik-

qaytaruvchilik xossalaring o'zgarishi. Sulfat, selenat va tellurat kislotalar. Kislotalik va oksidlovchilik xossalaring o'zgarishi.

13-mavzu. Beshinchi guruhning r-elementlari

Elementlarning umumiyl xossalari. Atomlarining tuzilishi. Guruhda atom radiuslari, ionlanish potensiali, elektronga moyilligi va elektromanfiylikning o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. Atomlarining yuqori oksidlanish darajasidagi birikmalar barqarorligining o'zgarishi. Birikmalardagi kimyoviy bog'lanish tabiat. Azot. Vodorodli birikmalar. Azot (I, II, III, IV, V) oksidlari. Molekulalarining tuzilishi. Oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. Nitrit kislota. Oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. Nitrat kislota, molekulasi va nitrat ionining tuzilishi. Konsentrangan va suyultirilgan nitrat kislotasining oksidlovchilik xossalari.

Fosfor, mishyak, surma va vismut oksidlari. Ularning o'ziga xos tuzilishga ega ekanligi. Suv, kislota va ishqorlarga munosabati. Olinish usullari. Fosfoming kislородли kislotalari. Ularning tuzlari. Gipofosfit kislota va gipofosfitlar. Fosfit kislota va fosfitlar. Meta-, piro- va ortofosfat kislotalari va ularning tuzlari. Mishyak, surma (III, V) va vismut (III) gidroksidlari. Meta-orto-shakllari. Kislota-asos va oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. Elementlarning (III, V) galogenidlari. Ularning nisbiy barqarorligi. Mishyak, surma va vismut sulfidlari. Mishyak va surmaning tiotuzlari.

14-mavzu. To'rtinchi guruhning r-elementlari

Elementlarining umumiyl tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruhda elementlar atom radiuslari, ionlanish potensiallari va elektromanfiyliklarining o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajasidagi birikmalar turg'unligining guruhda o'zgarishi. Birikmalarda kimyoviy bog'laning tabiat, kimyoviy xossalari, reaksiyon qobiliyati. EN₄ turidagi gidridlar. Uglerod (II)-oksid. Uglerod (IV)-oksid. Karbonat kislota va uning tuzlari, xossalari. Kremniy (II, IV) oksidlari. Kvars shisha. Silikat kislotalar. Germaniy, qalay, qo'rg'oshin (II, IV) gidroksidlari, xossalari. Germaniy, qalay, qo'rg'oshin (II, IV) gidroksidlari, xossalari. Elementlarning (II, IV) gidroksidlarini kation va anion shaklidagi birikmalar, nisbiy barqarorligi, gidrolizlanishi.

15-mavzu. Uchinchi guruhning r-elementlari

Elementlarning umumiyl tavsifi. Atom tuzilishi. Birikmalardagi kimyoviy bog' tabiat. Borning kimyoviy xossalari. Bor oksidi, tuzilishining o'ziga xosligi, xossalari. Orto-, meta va poliboratlar. Alyuminiy-tally qatoridagi metallarning fizik-kimyoviy xossalari. E(ON)₃lar, tuzilishi, xossalari. Alyuminiy-tally qatorida gidroksidlarning kislota va ishqorlarga munosabati.

16-mavzu. Metallarning umumiyl sharhi

Metallarning umumiyl tavsifi. Metallarning elektrokimyoviy kuchlanishlar qatori. Atomlarining tuzilishidagi o'ziga xoslik. Metallarning kristall strukturası.

Metall bog' va uning o'ziga xosligi. Zonalar nazariyasi asosida metall bog', o'tkazgichlar, yarim o'tkazgichlar va dielektriklar. Metallarning umumiyl olinish usullari. Pirometallurgiya. Gidrometallurgiya. Elektrometallurgiya. Metallar korroziyasi. Kimyoviy va elektrokimyoviy korroziya. Korroziya mexanizmi. Korroziya tezligini belgilovchi omillar. Metallarni korroziyadan himoya qilish usullari. Elektrokimyoviy himoya usullari.

17-mavzu. Birinchi guruhning s-elementlari

Vodorod – davriy sistemaning birinchi elementi. Vodorod atomi tuzilishining o'ziga xosligi. Tabiatda tarqalishi. Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Vodorodning birikmalari, fizikaviy va kimyoviy xossalari.

Ishqoriy metallar. Atomlarining tuzilishidagi o'ziga xoslik. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. Ionlanish potensiallari.

Birinchi guruh s-elementlarining umumiyl tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Birikmalarda kimyoviy bog'larining tabiati. Metallarning kimyoviy aktivligi. Litiy-seziy gidroksidlari qatorida asos kuchining o'zgarishi.

18-mavzu. Ikkinchchi guruhning s-elementlari

Ikkinchchi guruh s-elementlarining umumiyl tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Birikmalarda kimyoviy bog'lar tabiati. Gidroksidlari. Ularning strukturasi, kislota-asoslik xossalari. Berilliyl gidroksidining amfoterligi.

Magniy. Davriy sistemadagi o'rni, tabiatda tarqalishi, izotoplari. Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oksid va gidroksidlari, xossalari.

Ishqoriy-er metallari. Kalsiy, stronsiy, bariy atomlarining tuzilishi, izotop tarkibi, tabiatda tarqalishi. Fizikaviy va kimyoviy xossalari. Oksid va gidroksidlari, xossalari. Suvning qattiqligi. Vaqtinchalik va doimiy qattiqlik.

19-mavzu. Kompleks birikmalar

Verneming koordinatsion nazariyasi. Koordinatsion nazariyaning asosiy holatlari: markaziy atom va addendlar (ligandlar), tashqi va ichki sfera, koordinatsion son. Kompleks yadrovi va uning asosiy va qo'shimcha valentliklari.

Kompleks birikmalarda kimyoviy bog'ning tabiati, markaziy ionning ligandlar bilan elektrostatik va kovalent ta'sirlashishi. Kompleks birikmalarning tuzilishini valent bog'lanishlar nuqtai nazaridan tushuntirish. Past spinli va yuqori spinli komplekslar. Spektrokimyoviy qator.

20-mavzu. d-Elementlarining umumiyl tavsifi.

Uchinchi guruhning d-elementlari

Atomlarining tuzilishi. Guruh va davrlarda atomlar radiusi va ionlanish potensiallaring o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. Atomlarining yuqori oksidlanish darajasidagi birikmalar turg'unligining guruhlarda o'zgarishi. Davr va guruhlarda elementlar kimyoviy xossalaring guruhlarda o'zgarishi. Guruhlarda d-elementlar xossalaring p-elementlarga nisbatan o'xhashligi. Guruhlarda d-elementlar xossalaring p-elementlarga kimyoviy o'zgarishidagi o'ziga xoslik. V va VI davrlar d-elementlarining kimyoviy o'zgarishidagi o'ziga xoslik.

10

xossalardagi o'ziga xoslik. d-elementlar atomlarining har xil oksidlanish darajasidagi oksid va gidroksidlarning kislota-asos xossalari.

21-mavzu. To'rtinchchi guruhning d-elementlari

IV guruhning d-elementlari Elementlarining umumiyl tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruhda atom radiuslari va ionlanish potensiallaring o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. Birikmalardagi kimyoviy yuqori temperaturalardagi kimyoviy aktivligi. Titan (II, III) oksidlanish darajasidagi birikmalari va ularning xossalari. Gafniy (IV), titan (IV), sirkoniy (IV) oksidlari, xossalari. Ti-Zn-Hf qatoridagi E(ON)₄ turidagi gidroksidlarning kislota-asoslik xossalari.

22-mavzu. Besinchchi guruhning d-elementlari

V guruhning d-elementlari. Elementlarining umumiyl tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruhda atom radiuslarining va ionlanish potensiallaring o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darjasidagi. Birikmalardagi kimyoviy bog'lanish tabiati. Oddiy moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Tantal bog'lanish tabiati. Oddiy moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Vanadiy (V), niobiy (V) oksidlari. Ularning suvdagi eritmalari. Kislota-asos xossalari. Vanadiy (II, III, IV) – oksidlari va gidroksidlari, xossalari.

23-mavzu. Oltinchchi guruhning d-elementlari

VI guruhning d-elementlari. Elementlarining umumiyl tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Guruhda atom radiuslari, valentligi va ionlanish potensiallaring o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. YUqori oksidlanish darajalaridagi birikmalari, barqarorligining guruhda o'zgarishi. Atomlarining har xil oksidlanish darajalaridagi birikmalarining oksidlanish-qaytarilish xossalari. Kislород, SUV, kislota va ishqorlarga munosabati. Xrom (II, III, VI) oksidlari. Kislород, SUV, kislota va ishqorlarga munosabati. YUqori oksidlanish darajalaridagi birikmalari, barqarorligining guruhda o'zgarishi. Atomlarining har xil oksidlanish darajalaridagi birikmalarining oksidlanish-qaytarilish xossalari. Kislород, SUV, kislota va ishqorlarga munosabati. Volfram (IV) va molibden (IV) oksidlari. Kislota va ishqorlarga munosabati. Xrom-volfram (VI) oksidlari qatorida oksidlovchilik, kislota xossalari va barqarorligining o'zgarishi. Xrom (II, III, VI) gidroksidlari. Kislota-asos va oksidlovchi-qaytaruvchilik xossalari. Xrom (II, III) tuzlari. Xromatlar, polixromatlar. Xromat va bixromatlarining oksidlovchilik xossalari.

24-mavzu. Ettinchchi guruhning d-elementlari

VII guruhning d-elementlari. Elementlarining umumiyl tavsifi. Atomlarining tuzilishi. Elementlarining atom radiuslari va ionlanish potensiallaring o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darjasidagi. Guruhdagi kimyoviy bog'larining tabiati. Oddiy moddalarning fizik va kimyoviy xossalari, kimyoviy aktivligi; kislород, SUV, kislota va ishqorlarga munosabati. Marganets (II, III, IV, VII) oksidlari. Barqarorligi, kislota-asos va oksidlovchilik-qaytaruvchilik xossalari. SUV, kislota va ishqorlarga munosabati. Marganets (II, III, IV, VII) gidroksidlari. Barqarorligi, kislota-asos va Marganets (II, III, IV, VII) gidroksidlari.

oksidlovchi-qaytaruvchilik xossalari. Texnetsiy va reniy (VII) gidroksidlari. Marganets (II, III, IV, VII) tuzlari. Permanganatlarning kislotali, neytral va ishqori muhitlardagi oksidlovchilik xossalari.

25-mavzu. Sakkizinchı guruhning d-elementlari

Elementlarning umumiyyatini tasvifi. Temir-nikel va temir-osmiy qatorlarida atomlarning radiusi va ionlanish potensiallarining o'zgarishi. Elementlarning temir va platina oilalariga bo'linishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajalari. Birikmalaridagi kimyoviy bog' tabiatini. Temir, kobalt va nikelning fizikaviy va kimyoviy xossalari. Elementlarning oksidlari va aralash oksidlari. Xossalari. Temir, kobalt va nikel (II, III) gidroksidlari, kislota-asos va oksidlovchi-qaytaruvchilik xossalari. Ferratlar, barqarorligi, gidrolizi, oksidlovchi xossalari. Temir, kobalt va nikelning kompleks birikmlari. Platina gruppachasi elementlari. Platina metallarining fizikaviy va kimyoviy xossalari. Platina oilasining oddiy birikmlari, oksid va gidroksidlari. Platinaning kompleks birikmlari.

26-mavzu. Birinchi guruhning d-elementlari

Birinchi guruhning d-elementlari. Birinchi guruh elementlarining umumiyyatini tasvifi. Guruhda atom radiuslari va ionlanish potensiallarining o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajasi. Birikmalaridagi kimyoviy bog' tabiatini. Oddiy moddalarning kimyoviy xossalari. Oltinning zar suvida erishi. Mis (I, II), kumush (I, II) oksidlari, xossalari. Kislota, ishqor va suvgan munosabati.

27-mavzu. Ikkinci guruhning d-elementlari

Ikkinci guruhning d-elementlari. Elementlarning umumiyyatini tasvifi. Guruhda atom radiuslarining va ionlanish potensiallarining o'zgarishi. Atomlarining valentligi va oksidlanish darajasi. Birikmalaridagi kimyoviy bog' tabiatini. Oddiy moddalarning kimyoviy xossalari. Rux va kadmiy oksid va gidroksidlari. Kislota-asos xossalari.

28-mavzu. f-Elementlar

Elementlarning umumiyyatini tasvifi. Davriy sistemadagi o'rni. Atomlarining tuzilishi. 4f- va 5f- elementlari. Xossalardagi ichki davriylik. Birikmalaridagi kimyoviy bog'lanish tabiatini. Lantanoidlar (4f-elementlari). Metallarning kimyoviy xossalari. Oksid va gidroksidlari. Davrda kislota-asos xossalaringin o'zgarishi.

29-mavzu. Nodir gazlar

Gelyi va sakkizinchı guruhning r-elementlari. Elementlarning umumiyyatini tasvifi. Atomlarining tuzilishi, valentlik va oksidlanish darajasini namoyon qilish imkoniyatlari. Guruh bo'yicha atom radiusi va ionlanish potensialining o'zgarishi. Kimyoviy inertlik sabablari.

30-mavzu. Bionorganik kimyo

Tirik tabiatdagi kimyoviy elementlar. Hujayralarning tuzilishi. Hujayralarning noorganik tarkibi. Metall ionlarining biologik roli. Transport, transfer va transkripsiya. Kislorodning transporti va saqlanishi. Biologik sikllar. Meditsinadagi kimyoviy elementlar. Kislotali kataliz mexanizmi bo'yicha ta'sir qiluvchi fermentlar. Oksidlanish-qaytarilish katalizi.

"ANALITIK KIMYO" fani

Analitik kimyo fani, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari "Analitik kimyo" fani turli murakkab ob'ektlar (suv, tuzroq, havo, qotishmalar, geologik, biologik, atrof-muhit ob'ektlari va hok.) analizini amalga oshirishni o'rganadi. Fanning maqsadi kimyoviy analizning nazariy asoslari va metodlarini ishlab chiqish, atrof-muhitdagi har xil ob'ektlarning elementar kimyoviy tuzilishini, sifat va miqdoriy aniqlashimi ta'minlaydigan metodlar ishlab chiqish va o'rgatishdan iborat. Analizni umumiyyatni nazariy asoslarini, kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy metodlarining asosiy prinsiplari bilan tanishtirishdan va analitik kimyoning hozirgi zamon rivojlanish yo'llari, fan, texnika va sanoatdagi ahamiyati, atrof-muhit ob'ektlari ekologik muammolarini ko'rsatib berishdan iborat.

Kimyoviy analizning metrologik asoslari

Asosiy metrologik tushunchalar va tafsiflar: o'lchash, o'lchash usullari va asboblari. O'lchash natijalarini haqiqiyligini ta'minlaydigan asosiy prinsiplar va usullari. Kimyoda matematik ifodalar, metrologik tushunchalar va tafsiflar. Analizdagi xatoliklar klassifikatsiyasi: sistematik, tasodifiy, qo'pol, absolyut va nisbiy xatoliklar. Analizning asosiy bosqichlari. Analiz uchun usul tanlash va analiz sxemasini tuzish. Analiz usulining asosiy tafsiflari: natijalarning to'g'riligi va takrorlanuvchanligi, sezgirlik koefitsienti, miqdoriy aniqlashning quyi va yuqori chegaralari. O'lchash natijalarini matematik statistika yo'li bilan qayta ishlash. O'rtacha qiymat, dispersiya, standart chetlanish, nisbiy standart chetlanish, qayta takrorlanuvchanlik, aniqlik darajasi, extimollik chegarasi va intervali. Kimyoviy analiz usulining asosiy tafsiflari. Sezgirlik, qayta takrorlanuvchanlik, Student koefitsienti, ishonchlik ehtimolligining funksiyasi, ishonchlik chegarasi, aniqlik, tanlanuvchanlik. Dispersiya, taqsimlanish mezoni, normal taqsimlanish qonuni. Regression analiz metodi, graduirovkali grafik chizish uchun matematik statistika usulidan foydalanish. To'g'rilikni aniqlash usullari: standart namunalardan foydalanish, qo'shimchalar qo'shish metodi, namuna tortimini o'zgartirish usuli, boshqa usullar bilan solishtirish va hokazo. Darajali grafiktenglamasini tuzishda kichik kvadratlar usulidan foydalanish, qo'shish usullari torimni o'zgartirish usuli, boshqa metodlar bilan solishtirish usullari. Standart namunalar tayyorlash, shahodatlash va ulardan foydalanish. Analitik laboratoriyalarni metrologik shahodatlashdan o'tkazish. Namuna olish va namuna tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. Analizga birlamchi namuna olish. Namuna va analiz ob'ekti. Gomogen va geterogen tarkibli namunalar olish. qattiq suyuq va gaz holatdagi moddalardan o'rtacha namuna olish usullari. Namunani analiz qilinadigan shaklga o'tkazish, bosim va harorat ta'sirida parchalash va hok.

Kimyoviy muvozanatning asosiy turlari

Kimyoviy qaytar reaksiyalar. Massalar ta'siri qonuni. Analitik kimyoda muvozanatning asosiy turlari: kislota-asosli muvozanat, kompleks hosil qilish, oksidlanish-qaytarilish, cho'ktirish. Analitik va muvozanat konsentratsiya. Elektrostatik kuchlarning 13

elektrolit tabiatiga va reaksiyon qobiliyatga ta'siri. Aktivlik, aktivlik koefitsienti. Eritmaning ion kuchi. Chekli va kengaytirilgan Debay va Gyukkel qonunlari. Moddaning standart holatdagi aktivligi. Muvozanat konstantalari (termodinamik, konsentratsion va shartli) ular orasidagi bog'liqlilik. Ko'p bosqichli reaksiyaning muvozanat konstantasi va uning bosqichlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Kislota-asosli reaksiyalarda muvozanat.

Kislota va asoslar haqida nozirgi zamon tushunchalari. Brensted-Louri nazariyasi. Asosli va kislotali konstantalari. Har xil ko'rinishdagi protolitik eritmalarda pH ni hisoblash. Protolit kuchiga ta'sir etuvchi omillar. Induksion (ichki molekulalaro vodorod bog'lanish) effekt, dielektrik doimiysi (molekulalararo vodorod bog'lanish). Ionlanish va dissotsilanish. Erituvchi va uning avtoprotoliz konstanstasi bilan bog'liqligi. Erituvchilarning kislota-asos xossasi bo'yicha klassifikatsiyasi: aprotonli, protogenli, protofilli. Lion va liat ionlar. Lyuisning elektron nazariyasi nuqtai nazaridan kislota va asos tushunchalari. Kreshkovning kislota asoslar to'g'risidagi proton-elektron-gidrid konsepsiysi. Bufer eritmalar va ularning xossalari. Bufer sig'imi. Bufer sistemalarda pH ni hisoblash.

Kompleks hosil qilish reaksiyalarida muvozanat.

Analitik kimyoda ishlataladigan komplekslarning turlari. Analitik ahamiyatga ega bo'lgan kompleks birikmalarning xossalari: barqarorlik, eruvchanlik, rangdorlik, uchuvchanlik. Metall ligandli o'zaro ta'sir tavsifi bo'yicha kompleks birikmalarning sinflanishi: bir va ko'p yadroli kompleks birikmalar. Bir ligandli va ko'p ligandli (uchlamchi aralash ligandli) kompleks birikmalar. Barqarorlik konstantalari (umumi bosqichli). Hosil bo'lish funksiyasi. Kompleks birikmalar dissotsiatsiyasi. Kompleks birikmalar va qo'sh tuzlar. Umumiy va bosqichli barqarorlik, beqarorlik konstantalari. Xelatlar, ichki kompleks birikmalar. Xelatlar barqarorligini belgilovchi omillar: reagentlarning tuzilishi va ular tarkibidagi donor atomlar tabiatи, sikllar soni va o'lchami, metall-ligand bog'ining tavsifi. Funksional analitik guruhlar, ularning kompleks hosil qilishida tanlab ta'sir etuvchanligi va rangli komplekslarning hosil bo'lishida xromofor guruhlarning roli. Kompleks hosil bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar: markaziy atom va ligandning tuzilishi, komponentlar konsentratsiyasi, pH, eritmaning ion kuchi, harorat. Kompleks birikmalarni ishlatalish yo'li bilan sezgirlik va tanlovchanlikni oshirish. Kompleks birikmalar va organik reagentlarni har xil analiz usullarida ishlatalish imkoniyatlari.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.

Elektrod potensiali, Nernst tenglamasi. Standart va formal potensiallar bilan bog'liqligi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining yo'nalishi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining mexanizmi. Analizda qo'llaniladigan asosiy organik va anorganik oksidlovchilar va qaytaruvchilar. Aniqlanadigan elementni oldindan oksidlash va qaytarish usullari.

Cho'ktirish reaksiyalari.

Eruchanlik ko'paytmasi va eruvchanlik. Ularga ta'sir etuvchi omillar. Bo'laklab va sistematik cho'ktirish.

Ochish va identifikatsiyalash usuli.

Ochish va identifikasiyalash usullari. Ochish va identifikasiyalash usullarini tanlash va ularning vazifalari. Atomlar, ionlar, molekula va moddalarni identifikasiyalash. Bo'laklab va sistematik analiz qilish. Guruh reagentlari va ularga qo'yiladigan talablar. Anorganik va organik moddalarni ochish va identifikasiyalashning fizik usullari. Mikrokristalloskopik analiz, pirokimyoviy analiz. Sifat

analizining xromatografik usullari. Analizning ho'l va quruq usullari. Ajratish va konsentrashning kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy usullari. va konsentrashning ekstraksion va xromatografik usullari. Gaz, suyuqlik va gaz-suyuqlik xromatografik usullari.

Miqdoriy analiz

Miqdorli analiz

Metodning mohiyati. Bevosita va bilvosita aniqlash usullari. Gravimetrik analizda xatoliklar. Aniqlashning umumiy sxemasi. Tortim, cho'kmaning miqdori va eritmaning hajmi. Cho'ktirilayotgan shaklga qo'yildigan talablar. Cho'kmani eritmadan ajratish usullari. Tortilayotgan shaklga qo'yildigan talablar. Qurish va qizdirish jarayonida cho'kma tarkibini o'zgartirish. Amorf va kristall cho'kmalar, yirk kristallarni olish sharoitlari. Gomogen cho'ktirish, cho'kmaning yetilishi. Cho'kmaning ifloslanish sabablarasi. Birgalashib cho'kishning sinflanishi (adsorbsiya, okklyuziya, izomorfizm). Nisbiy o'ta to'yinish. Birgalashib cho'kishning afzaliliklari va kamchiliklari. Termogravimetrik analiz. Analitik tarozilar, ularning turlari va sezzifikkleri. Torish texnikasi. Gravimetrik analizga misollar.

Titrimetrik analiz usullari

Titrimetrik analiz usulları

Titrimetrik analiz usullari

Titrimetrik analiz usullarining sinflanishi. Titrimetrik analizda ishlataligan reaksiyalarga qo'yiladigan talablar. Titrimetrik aniqlashning turlari: bevosita va bilvosita titrlash. Titrimetrik analizda eritma konsentratsiyasini ifodalash usullari. Kisloto-asosli titrlash. Titrlash egrilari. Titrlash sakramasi va unga ta'sir etuvchi omillar. Suvziz muhiida kisloto-asosli titrlash. Titrlashning indikator xatoliklari. Kisloto-asosli indikatorlar. Kisloto-asosli titrlashning amaliyotda ishlatalishi. Kisloto, asos, kislotalar aralashmasini, asoslar aralashmasini titrlash. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari asosida titrlash. Titrlash egrilarini tuzish. Titrlash egrilariga ta'sir etuvchi omillar: kompleksning hosil bo'ishi, vodorod ioni konsentratsiyasi, ion kuchi. Indikatorlar. Titrlash xatoliklari. Amaliyotda ishlatalishi. Permanganatometriya. Yodometriya. Bixromatometriya. Kompleksonometrik titrlash. Titrlash egrilarini tuzish. Titrlash xatoliklari. Aminopolikarbon kislotalar va ularning kompleksonometriyada ishlatalishi. Etilendiamintetraasetat kislotasi va uning natriyli uzulari komplekson-III ning titrimetrik analizda ishlatalishi. Kompsonometrik titrlashning amaliyotda qo'llanilishi. Suvning qattiqligini aniqlash. Cho'kirish reaksiyasi asosida titrlash. Titrlash egriligini tuzish. Titrlash aniqligiga adsorbsianish hodisasining ta'siri. Titrlash tavsifiga cho'kma eruvchanligi, konsentratsiya va haroratning ta'siri. Indikatorlar. Titrlash xatoliklari. Folgard, Mor, Fayans usullari. Titrlashning amaliyotda ishlaniishi.

Optik analiz usullari

Optik analiz usullari. Elektromagnit

Optik analiz usulları

Elektromagnit nurlanish spektri: Uning to'iqin va korpuskulyar tabani. Elektromagnit nurlanishni xarakterlovchi kattaliklar (to'iqin uzunlik, chastota, to'iqin soni, energiya). Elektromagnit nurlanish spektri. Elektromagnit nurlar bilan modda orasidagi o'zaro ta'sir. Bu ta'sirlar natijasida moddada bo'ladigan fizikaviy jarayonlar. Spektroskopik usullar va ularning turlari. Spektr oluvchi asbob, tuzilishi, optik sxemasi. Spektrometrii xarakterlovchi kattaliklar: ishslash sohasi, chiziqli dispersiya, ajratib ko'rsatish kuchi, yorug'lik kuchi. Elektromagnit nurlarni qabul qilgichlar: inson ko'zi, fotoplastinka, bolometr, termoelementlar, fotoelementlar, fotoelektron ko'paytirgichlar, fotoqarshiliklar, fotodioldar, zaryad orqali bog'langan asboblar, fotodioldar lineykasi. *Molekulyar spektroskopiya usullari*. Modda tomonidan yorug'lik nurining yutilishi. Buger-Ber-Lambert qonuni. Optik zichliklarning additivlik xossasi. Yorug'lik yutilishining molyar koefitsienti. Buger-Ber - Lambert qonundan chetlanish va uning sabablari. Fotometrik reaksiyalar. Fotometrik

reaksiyalar orqali moddani aniqlashning bevosita va bilvosita usullari. Fotometrik analizda ishlataladigan birikmalar va ularning yutilish spektrlari. Fotometrik reaksiyalarning keskinligi va uni oshirish yo'llari. Miqdoriy analizning fotometrik usullari. Xalaqt beruvchi komponentlar bo'lmagan vaqtida moddalarni aniqlashning absolyut fotometrik usullari. Bitta moddani aniqlash usullari. Tadqiq qilinayotgan va standart rangli eritmalarining optik zichliklarini taqqoslash usuli. Molyar yorug'lilik yutilish koefitsientining o'ttacha qiymati bo'yicha aniqlash usuli. Darajalash grafigi orqali aniqlash. Qo'shimcha qo'shish orqali aniqlash. Spektrosimetrik usulning metrologik xarakteristikalar. Aniqlanadigan konsentratsiyaning quyisi chegarasi. O'chash natijalarining takrorlanishi. Optik zichlikdigan optimal oralig'i. Sezgirligi. Tanlash (selektivlik). Selektivlikni cheklaydigan omillar. Spektral va fizik-kimyoviy xalaqtilar. Fotometrik titrlash. Differensial spektrosimetriya. Spektrosimetrik usulning qo'llanilish sohalari. Oddiy fotometrning tuzilishi, asosiy qismlari va ishlash prinsipi.

Atom-absorbsion spektrometriya

AAS usulining asoslari. Atomlarning optik nurlarni yutishi. Atom bug'ining optik zichligi. Birlamchi nurlanish mabalari; g'ovak katodli va elektrodsiz razryad lampalar va ularning tuzilishi. G'ovak katodli lampadagi jarayonlar va nurlanishning hosil bo'lishi. Erkin atomlarning manbalari; alanga, elektrotermik pech. Alanga hosil qiluvchi gorelkanning tuzilishi. Namunani alangaga kiritish. Alanganing ustunligi va kamchiliklari. Elektrotermik atomizator, tuzilishi va ishlash prinsipi. Elektrotermik atomizatorning ustunligi va kamchiliklari. Atom-absorbsion spektrometr. Optik (spektral) xalaqtilar; fon hosil qiluvchi nurlanish, fon nurlanishining yutilishi. Fonning signalini ajratish. Fizik-kimyoviy tabiatga ega bo'lgan xalaqtilar; atomlashning chalaligi va ionga aylanish. Xalaqtilar bilan kurashish usullari; temperatura maromini rejalashtirish va spektroskopik buferlardan foydalanish. Miqdoriy analiz usullari; tashqi standartlar (darajalash grafigi), qo'shimcha qo'shish. Usulning sezgirligi, aniqlanadigan konsentratsiya oralig'i. Qo'llanish sohalari.

Atom-emission spektrometriya

